

**2025-2026-o'quv yilida 9-sinf o'quvchilarining informatika va axborot
texnologiyalari fanidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test varianti**

II chorak 2-ChSB

Jami: [40 ball]

1. (Q) Dupliks printerlarning boshqa printerlardan qanday afzalligi bor?

- A) bunday printerlar faqat rangli chop etadi
- B) kompyuterga ulashda sim kerak emas, u doim WiFi tarmog'i orqali ulanadi
- C) ketma-ket 100 betdan ortiq qog'ozni chop eta oladi
- D) qog'ozning ikkala tomoniga avtomatik tarzda chop eta oladi

2. (Q) Kitob raqamlari uchun 13 ta sondan iborat bo'lgan xalqaro standard qanday ataladi?




- A) GPS
- B) ISBN
- C) CGI
- D) DTP

3. (B) AKT tizimlarida o'lchov olish insonlarning o'lchash ishlarini olib borishidan qanday jihatlar bilan afzal hisoblanadi?


- A) aniqlik
- B) ishonchlilik
- C) qulaylik
- D) barcha javob to'g'ri

4. (M) LOGO tili buyruqlari yordamida yozilgan ushbu kod qanday shakl chizadi:

RIGHT 90 FORWARD 120 LEFT 135 FORWARD 80 LEFT 90 FORWARD 80



5.(Q) Ushbu shakl hosil bo'lishi uchun yozilgan LOGO tili buyruqlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?



- A) FORWARD 100 RIGHT 135 FORWARD 141 RIGHT 135 FORWARD 100
- B) FORWARD 100 LEFT 45 FORWARD 141 LEFT 45 FORWARD 100
- C) RIGHT 90 FORWARD 141 LEFT 135 FORWARD 100 LEFT 90 FORWARD 100
- D) FORWARD 141 RIGHT 135 FORWARD 100 RIGHT 90 FORWARD 100



6.(Q) Quyidagi javoblardan qaysi birida onlayn band qilish tizimlarining kamchiligi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) mavjud joylar haqida ma'lumotlarni darhol aniqlash mumkinligi
- B) onlayn band qilish vaqtini tejamasligi
- C) tizimni birinchi marta o'rnatishning qimmatligi
- D) mavjud joylar haqida ma'lumotlarni darhol aniqlashtirish mumkin emasligi

7.(Q) Siz ko'rayotgan veb sayt tomonidan kompyuteringizning diskiga saqlab qo'yiladigan fayl qanday ataladi?

- A) cookie
- B) demo
- C) session
- D) cashe

8.(Q) Quyida berilganlardan qaysi birlari xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilinmasligi oqibatida ro'y beradi:

- 1) xonadonda elektr tokining o'chishi natijasida kompyuterning ham o'chib qolishi;
 - 2) kompyuter ustiga ichimlik to'kilib ketilishi;
 - 3) elektr simi kompyuter stolining ostida qolishi natijasida kompyuterning o'chib qolishi;
 - 4) bitta rozetkaga ko'p elektr jihozlari ulanganda rozetkaning qizib ketishi;
- A) 1, 2, 3
 - B) faqat 1 va 3
 - C) 2, 3, 4
 - D) 1, 2, 4

9.(Q) Quyida keltirilgan parollardan qaysi biri nisbatan ishonchliroq?

- A) house
- B) 123456
- C) house12
- D) \$H0uSe12

10.(Q) Quyida SMS xabar ko'rinishida foydalanuvchining telefon raqamiga jo'natilib, shaxsiy ma'lumotlarni, masalan parollar va bank kartasi ma'lumotlarini qo'lga kiritishga urinish qanday ataladi:

Hurmatli Korzinka.uz xaridori,
Tabriklaymiz! Siz 10 000 000
so'mlik Korzinka.uz vaucherini
qo'lga kiritdingiz.
Vaucherinigzni olish uchun
quyidagi havolni bosing:
www.KorzinkaClick.com
(Sovg'ani rad qilish uchun shu

- A) Farming(*ing. pharming*)
- B) Smishing(*ing. SMiShing*)
- C) Vishing(*ing. vishing*)
- D) Rutkit(*ing. rootkit*)

11.(Q) Nuqtalar o'rnini to'ldiring: ... – ma'lumotlar va dasturlarni kompyuterning qattiq diskida emas, internetdagi markazlashgan joyda saqlash.



- A) Josus dasturlar
- B) Bulutli texnologiyalar
- C) Fayervol
- D) Shifrlash

12.(B) Bulutli dasturlarning xavfsizligi bo'yicha shaxslar uchun asosiy muammo nimadan iborat?

- A) ma'lumotlardan ixtiyoriy joydan turib foydalanish mumkin emas
- B) ma'lumotlarni qayta ishlash imkoni yo'q
- C) ma'lumotlarni ixtiyoriy formatda ishlatish mumkin emas
- D) ma'lumotlarni saqlashda bulutli texnologiyalardan foydalanuvchi shaxslar o'z ma'lumotlarini maxfiyligini yo'qotishadi

13.(B) Foydalanilayotgan saytni nazorat qilish usullaridan eng osoni ko'rsatilgan javob variantini tanlang.

- A) sayt dizaynini o'zgartirish
- B) saytga reklamalar joylashtirish
- C) saytni bloklash
- D) sayt klonini yaratish

14.(Q) Elektron pochtaga kelgan, lekin siz xohlamagan xabar qanday ataladi?

- A) spam
- B) cookie
- C) protokol
- D) gipermatn

15.(M) Siz do'stingizdan sog'liqni saqlash bo'yicha yangi dieta haqida eshitdingiz va bu dieta inson salomatligi uchun foydali ekanligi aytilmoqda. Do'stingiz sizga internetdagi blog postining havolasini yubordi. Blogda parhez haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

- ▶ Parhez insonning energiyasini oshiradi;
- ▶ Haftada 5 kilogramm vazn yo'qotish mumkinligi da'vo qilingan;
- ▶ Ushbu dietani siz tanigan bir nechta mashhur insonlar tanlagani yozilgan.

Ushbu axborotning ishonchliligini baholash uchun quyidagi qaysi harakat eng maqbul?

- A) Axborotda keltirilgan ma'lumotlarni to'g'ri deb qabul qilib, parhezni sinab ko'rish
- B) Axborot manbasini tekshirib, maqola muallifi va u ishlatgan ilmiy dalillarni qidirib topish
- C) Do'stingizning fikriga tayanib, parhezni sinab ko'rish
- D) Blogdagi parhezni tanlagani aytilayotgan mashhur insonlarining ijtimoiy tarmoq sahifalariga tashrif buyurib ko'rish



Javoblar:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
D	B	D	A	A	C	A	C	D	B	B	D	C	A	B

Baholash mezon:

(B) – Bilish, har bir to‘g‘ri javob uchun – 2 balldan, jami 6 ball;

(Q) – Qo‘llash, har bir to‘g‘ri javob uchun – 2,4 balldan, jami 24 ball;

(M) – Mulohaza, har bir to‘g‘ri javob uchun – 5 balldan, jami 10 ball;

Jami: [40 ball]